

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING IJODIY FIKRLASHGA TA'SIRI

Kunduz Irisbayeva Mamadinovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali katta o'qituvchisi.

Tel: +99891.050.50.09 kunduz.irisbayeva@bk.ru

Abduraximova Oydina Boymirza Qizi

Ziyovuddinova Dilshodaxon Qodirjon Qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllanishiga ta'sir etuvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati haqida tushunchalar yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются представления о значении современных образовательных технологий в формировании навыков творческого мышления у учащихся начального звена.*

Annotation: *This article explores the significance of modern educational technologies in developing creative thinking skills among primary school students.*

O'zbekistonning ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida, boshlang'ich ta'limning sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlari doirasida, o'quvchilarda ijodiy tafakkur, kreativ fikrlashni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilgan.

Prezidentimizning "Yangi avlodni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollantirmasdan turib, raqobatbardosh jamiyat qurib bo'lmaydi." yoki, "Zamonaviy bilim va innovatsiyalarga asoslangan ta'limsiz hech qanday taraqqiyot bo'lishi mumkin emas." kabi fikrlari maktab yoshidagi bolalarda kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalari, o'zini erkin ifoda eta olish qobiliyatini shakllantirish dolzarb vazifaga aylanganligini ko'rsatadi. ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bu borada asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari — bu o'quv jarayonini jonlantiruvchi, bolalarning mustaqil fikrlashiga yo'l ochuvchi, ijodiy yondashuvini rag'batlantiruvchi samarali vositalardir. Interfaol darslar, multimedia materiallar, axborot-kommunikatsiya vositalari va innovatsion metodlar orqali har bir o'quvchining qiziqishini uyg'otish va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim jarayonida kreativ qobiliyatni rivojlantirish, nafaqat ularning umumiy bilim doirasini kengaytiradi, balki ijtimoiy moslashuv, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni ham shakllantiradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari va boshqa innovatsion usullar, kreativ tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'limda ushbu

texnologiyalarni samarali qo'llash, o'quvchilarning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ularni ijodiy faoliyatga undashda katta imkoniyatlar yaratadi.

Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo...) va samarali (amaliy, natijaviy, tejimli, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir. Kreativlikni odatga aylantirish orqaligina ijodiy fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Inson miyasi obraz, bashorat, xis tuyg'u, emotsiya va ma'no boy ma'lumotlar olishni ma'qul ko'radi. "agarda ma'lumot hech qanday hissiyot va fikriy jarayonlardan holi bo'lsa, u miyada saqlanmaydi". Biroq, kreativ fikrlash miyada uning "ta'lim olish va o'rganish metodlariga zid bo'lgan yangi usullarni qo'llash va noan'anaviy, original g'oyalarning ishlab chiqilishini taqozo etadi. Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega bo'ladi. Ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda bir qator texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan, - "Keys-stadi" texnologiyasi (ingl. "case" – chemodan, metod, "study" – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – o'quvchilarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya, real vaziyatlarni bayon etishda qo'llaniladigan o'qitish texnikasi deya e'tirof etiladi. Darhaqiqat, keys-stadi o'quvchilarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi. Bu o'rinda Patti Drapeau quyidagi maslahatni beradi: "Bir manzildan ikkinchi manzilga borish uchun biz ikki va undan ko'p yo'nalishlarni bosib o'tamiz". deya aytgan fikri bilan o'quvchi yoshlarda muommoga bir yoqlama munosabatda bo'lmaslikni tarbiyalash, uzoqni ko'ra olish, yangi g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasini shakllantirish lozimligini eslatib, Olimaning ushbu fikri mohiyatan muommoli ta'lim texnologiyasini ta'limda o'rinli qo'llash lozimligini e'tirof etishga yo'l ochadi. Shu o'rinda savol tug'iladi, muammoli ta'lim o'zi nima?

Muammoli ta'lim — bu o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim uslubidir.

Bu usulda o'qituvchi tayyor bilimni bermaydi, balki o'quvchini fikrlashga undaydigan savollar va topshiriqlar orqali o'rganish jarayonini tashkil qiladi.

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarda ushbu ta'lim jodiy fikrlashni rivojlantiradi;

- Mustaqil o'rganishga qiziqish uyg'otadi;
- Tanqidiy fikrlashni shakllantiradi;
- O'quvchilarda mas'uliyat va faol ishtirok tuyg'usini mustahkamlaydi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi:

- Yo'lboshlovchi va koordinator sifatida ishtirok etadi;
- Muammoni to'g'ri qo'yadi;

-O'quvchini o'ylashga undaydi, lekin to'g'ri javobni o'zi aytmaydi;

-Har bir bolaning fikrini tinglaydi va rag'batlantiradi. Masalan, "Matnda ishtirok etayotgan qahramon nima uchun unday harakat qildi? agar sen uning o'rnida bo'lganida qanday yo'l tutarding?"

Maqsad: O'quvchining matnni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasini rivojlantirish. Yoki "Do'koningizda 5 ta non bor edi. 3 tasini sotdingiz. Keyin yana 4 ta keltirildi. Endi nechta non bor? Nega?"

Maqsad: arifmetik amallarni to'g'ri ketma-ketlikda bajarish, mulohaza yuritish kabi har bir fan doirasida qo'llash mumkin bo'lgan texnologiya xisoblanadi.

"aJIL" ("amaliy jamoaviy ijodiy loyihalar") strategiyasi o'quvchilarda ijodiy faoliyat malakalarini, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyiha (ish)larning shakllari to'g'risidagi tushunchani hosil qilishga ko'maklashishga xizmat qiladi. "ajil" texnologiyasini o'quv jarayonida "Jamoaviy ijodiy ishni tashkil etish" mavzusidagi suhbat yoki "Men – jamoaviy ish tashkilotchisiman" nomli blits-o'yin o'tkazilgandan so'ng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Aqliy hujum» metodi biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. «aqliy hujum» metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. «aqliy hujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Bunda bildiriladigan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa, talabalar diqqatlarini shaxsiy fikrlarni himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi; metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni baholab borishdan voz kechishdir).

Demak ta'limda bu kabi texnologiyalarni qo'llash dars jarayonini samarali, natijaga qisqa fursat ichida yetish, o'z fikrini erkin bayon etish, mustaqillik, o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni hamda pedagog ishini ham yengilashtirish kasbiy charchoqlarni kelib chiqishini oldini olish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2021. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va xalq deputatlari Kengashlariga Murojaatnomasi.
3. Hasanboeva O.a. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 148 b.
4. Yo'ldoshev a.Q. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2020. – 240 b.
5. Raxmonov N. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: «Fan», 2019. – 87-165 b.
6. G'ofurova M.N. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2021. – 132 b.